

Yana bir muvaffaqiyatli hamkorlik

Joriy yilning 21 - noyabrida institutimizga Italiyaning Turin politexnika universiteti professori Maurizio Rosso "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasini taklifi bilan tashrif buyurdi. Tashrif davomida professor Maurizio Rosso institutimiz o'quv ishlari bo'yicha prorektori professor B.Mirzayev bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida professor B.Mirzayev mehmonga institutimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangi islohotlar bilan keng ko'lamda ma'lumotlar almashdi. Keyingi yillarda institutimiz erishgan yutuqlar, xalqaro hamkorliklar, tashriflar yuzasidan mufassal ma'lumotlar berildi.



Suhbat so'ngida institutimiz va Italiyaning Turin politexnika universiteti bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandum imzolashga kelishildi. Shundan so'ng professor Maurizio Rosso "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasini mudiri dos. I.Xudayev hamkorligida institutimizdagi "Gidrotexnika qurilishi", "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash", "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish" kafedralari o'quv laboratoriyalari bilan yaqindan tanishdi. O'z fikr- mulohazalarini bildirib, dastlabki tashrifdan minnatdor ekanligini va bu hamkorligimiz davom etishini aytdi. Yaqin kunlarda professor Maurizio Rosso SXMIM ta'lim yo'nalishi talabalari uchun muammoli ma'ruza o'qib berishini bildirdi.



"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasini dotsenti I.Xudayev ma'lumoti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov